



CLIMATE ACTION

NAMANGAN STATE UNIVERSITY

Ekologik ta'lim choralari doirasida amalga oshirilgan ishlar bo'yicha ma'lumot

Namangan davlat universitetida 2022-yilda ekologik ta'lim dasturi doirasida mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish va zamon talablaridan kelib chiqqan holda takomillashtirish, ta'lim oluvchilarning e'tiborini umumbashariy ekologik muammolarga qaratish orqali ularning ona tabiatning qayta tiklanmas manbalarini saqlab qolish va ulardan oqilona foydalanish bo'yicha mas'uliyatini kuchaytirish hamda ekologik ta'limning samarali shakllari va usullarini ishlab chiqish hamda joriy etish bo'yicha bir qator amaliy ishlar o'tkazilib kelinmoqda.

Ekologik ta'lim choralari doirasida universitetda amalga oshirilayotgan ishlardan ko'zlangan asosiy maqsad o'sib kelayotgan yosh avlodda ekologik bilim, ong va madaniyatni shakllantirish hamda rivojlantirish, ekologik ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, shuningdek, ekologiya sohasidagi ilm-fanni jahonning ilg'or innovatsion texnologiyalarini jalb etgan holda yanada takomillashtirishdan iborat.

Quyida soha doirasida qilingan ishlar keltirib o'tilgan.

1. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining "O'zbekiston" telekanali tomonidan "Agroinnovatsiya" tok shousida Respublika qurqog'chil hududlarida iqlim o'zgarishiga moslashish, suv kam talab qiluvchi ekinlarni ekish va tuproq va xavo namligidan foydalangan holda ekin yetishtirish imkoniyatlari taxlil qilingan.

Link: https://www.youtube.com/channel/UCY2g2i8b2ulz_1JQPXKNj_Q?view_as=subscribe

2. 2022-yilda O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining "Namangan" viloyati televideniyesi tomonidan "Ekoolam" ko'rsatuvi orqali Respublikamizda iqlim o'zgarishi davrida atrof-muhitni muhofaza qilish, maishiy chiqindilarni barataraf etish va qayta ishlashni takomillashtirish masalalari taxlil qilingan.

Link: https://www.youtube.com/channel/UCY2g2i8b2ulz_1JQPXKNj_Q?view_as=subscribe

3. Namangan davlat universiteti Markaziy Osiyo davlatlari vakillari ishtirokidagi "International Symposium on Biodiversity Conservation & Sustainable Development in Arid Lands" xalqaro konferensiyasida ishtirok etgan (D.Dexqonov) va 2022 yilda amalga oshirilgan ishlar bo'yicha ilmiy maqola nashr ettirilgan.

Challenges and solutions to biodiversity conservation in arid lands. Yuanming Zhang, D. Dehqonov, et al. Science of the Total Environment 857 (2023) 159695. Received 5 August 2022; Received in revised form 20 October 2022; Accepted 20 October. 2022 Available online 24 October 2022. <http://dx.doi.org/10.1016/j.scitotenv.2022.159695>



4. Namangan davlat universiteti hamda O‘zbekiston ekologik partiyasi Namangan viloyat hududiy boshqarmasi bilan hamkorlikda “Atrof-muhitni obod qilaylik” shiori ostida ekologik obodonlashtirish aksiyasi tashkil etilgan. Ishtirokchilar Namangan shahrining obodligi uchun yon atrofga tashlab ketilgan turli chiqindilarni to‘plab, maxsus qutilarga tashlashdi va shu orqali mazkur holatni kuzatib turgan shahrimiz aholisining ekologik ma’daniyatini yuksaltirishga o‘z hissalarini qo‘shdilar.



| № | Ishtirokchilar soni | Chiqindilar turi | | |
|---|---------------------|------------------|---------|---------|
| | | plastik | organik | metalli |
| 1 | 30 | 12 | 19 | 2 |

Link: <https://uz.tgstat.com/ru/channel/@namdu309/8296>

5. Ekologiya kafedrasida professor o'qituvchilari va keng jamoatchilik ishtirokida "Ekologiya: Insoniyat va kelajak qarshisidagi xavf" nomli davra suhbatini tashkil etilgan. Mazkur davra suhbatida dunyoda ro'y berayotgan global ekologik muammolarni bugungi kundagi salbiy ta'siri, ularni insoniyatini tug'ridirayotgan xavf ko'rsatkichlari taxlil qilingan.



Link: <https://t.me/namdupressklub>

6. Namangan davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Ekologiya kafedrasida tadqiqotchisi D.I.Isoqov tomonidan "NamDU plyuviograf" ishlab chiqarilgan. Mazkur qurilma yuqori tog' va tog' oldi xududlarida xosil bo'ladigan yog'in jadalligini radiolokatsion tizimini bajarib beradi. Qurilma asosida maxalliy aholipunktlarini sel va suv toshqinlaridan ogohlantiish vazifasini o'taydi.



| № | Qurilma nomi | Qurilma kuchi | | |
|---|-------------------|---------------------------------|-----------------------------|-----------------------------------|
| | | Qurilma singal uzatish uzoqligi | qurilma joylashgan xudud | Qurilmani habar yetkazish tezligi |
| | NamDU plyuviograf | 25 | tog' va tog' oldi mintaqasi | 1-3 daqiqa |

Link: <https://scholar.google.com/citations?user=iBaibjAAAAAJ&hl=ru>

7. Namangan davlat universiteti Tabiiy fanlar fakultetining Ekologiya kafedrasida va Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi Namangan viloyati boshqarmasi, O'zbekiston Ekologik Harakati Namangan viloyati xududiy bo'linmasi, Ekologik Partiya Namangan viloyat va tuman Kengashlari, Ekologiya sohasida faoliyat olib borayotgan nodavlat va notijorat davlat tashkilotlari ishtirokida "Biz tabiat bilan birgamiz" shiori ostida kengaytirilgan tadbir o'tkazilgan.



Link: <https://telegra.ph/5-IYUN-BUTUNJAXON-ATROF-MUHIT-KUNI-06-05>